

O‘QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING SAMARALI USULLARI

Bashmanova Marjona Nodirjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Tanqidiy fikrlash — o‘quvchining ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish, baholash, mantiqiy xulosa chiqarish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qilingan. Maqolada savol berish texnologiyasi, muammo yechish (problem-solving), tahlil va baholash, debat va munozara, rol o‘yinlari, yozma refleksiya kabi metodlar o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda eng samarali vositalar sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda axborot manbalarini tanqidiy tekshirish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va muammoga turli rakurslardan yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning bilim sifati va mustaqil fikrlash salohiyatini oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit soʻzlar: Tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, ma’lumot manbalari, ishonchlilik tahlili, fakt va fikr ajratish, dalillarga asoslangan xulosa, manbani baholash, tarafkashlik, ma’lumotni tekshirish, solishtirish va tahlil, mantiqiy baholash, mustaqil qaror qabul qilish, internet va media savodxonligi, axborotning haqiqiyliigi, tahliliy ko‘nikma

Аннотация: В данной статье рассмотрены эффективные методы формирования и развития компетенций критического мышления у учащихся в современном образовательном процессе. Критическое мышление трактуется как способность ученика анализировать, сопоставлять и оценивать информацию, делать логические выводы и принимать обоснованные решения. В статье рассмотрены такие методы, как технология постановки вопросов, решение проблем (problem-solving), анализ и оценка, дебаты и обсуждения, ролевые игры, письменная рефлексия, которые являются эффективными средствами развития мышления учащихся. Также даны практические рекомендации по формированию у учащихся навыков критической проверки источников информации, анализа различных точек зрения и подхода к проблеме с разных ракурсов. Результаты исследования показывают, что развитие критического мышления повышает качество знаний учащихся и их способность к самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: критическое мышление, информационная грамотность, источники информации, оценка достоверности, различение фактов и мнений, вывод

на основе доказательств, оценка источника, предвзятость, проверка информации, сравнение и анализ, логическая оценка, самостоятельное принятие решений, интернет и медиа грамотность, достоверность информации, аналитические навыки

Abstract: *This article examines effective methods for developing and enhancing students' critical thinking competencies in the modern educational process. Critical thinking is defined as the student's ability to analyze, compare, and evaluate information, make logical conclusions, and make reasoned decisions. The article reviews methods such as questioning techniques, problem-solving, analysis and evaluation, debates and discussions, role-playing, and written reflection, which are considered effective tools for developing students' thinking. Practical recommendations are also provided for developing students' skills in critically evaluating information sources, analyzing different perspectives, and approaching problems from multiple angles. Research findings indicate that fostering critical thinking enhances students' knowledge quality and their capacity for independent thinking.*

Keywords: *critical thinking, information literacy, information sources, reliability assessment, distinguishing facts and opinions, evidence-based conclusions, source evaluation, bias, information verification, comparison and analysis, logical assessment, independent decision-making, internet and media literacy, information accuracy, analytical skills.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, muammolarni hal etish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat o'quvchilarga nafaqat darslarda, balki kundalik hayotda ham mantiqiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shu maqolada o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'limda ta'lim oluvchilarning har tomonlama teran fikrlashi talab etiladi. Zero, pedagogik jarayon ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun rang-barang metodlardan foydalanishimiz talab etiladi. Quyida bir necha ta'limiy metodlarni ko'rib chiqamiz. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bu ko'rinishdagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.Savol berish usuli. Savol berish usuli o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda eng asosiy usullardan biridir. Ochiq savollar o'quvchini mustaqil fikrlashga va dalillarga asoslanishga undaydi. Masalan, “Agar tarixiy hodisa boshqa tarzda sodir bo'lganida natija qanday bo'lardi?” degan savol o'quvchilarni fikr yuritishga undaydi. Bu usul orqali

o‘quvchilar yuzaki javoblar bermay, o‘z fikrlarini asoslashni o‘rganadilar. Bu kabi muammoli savollar berish orqali muhokama jarayonini yuza keltirish mumkin. Muhokama esa tanqidiy fikrlashning eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir¹⁵⁷.

2. Muammo yechish . Muammo yechish metodikasi o‘quvchilarga turli vaziyatlarda ijodiy va mantiqiy yechimlar topish ko‘nikmasini beradi¹⁵⁸. Masalan, matematika darslarida yoki hayotiy vaziyatlarda “Qanday qilib bu muammoni hal qilasiz?” degan savollar orqali o‘quvchilarni tahlil qilishga o‘rgatish mumkin. Shu tariqa ular amaliy fikrlashni o‘rganadilar. Muammo yechish metodikasi o‘quvchilarni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ijodiy yechim topish, va qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Bu metod ayniqsa matematika, fizika, kimyo, informatika va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali.

 Muammo yechish bosqichlari (jadval ko‘rinishida)

Bosqich	Savollar	O‘quvchi faoliyati	Natija
1. Muammoni anglash	– Muammo nima? – Nima talab qilinmoqda?	Muammoni diqqat bilan o‘qiydi, tushunadi	Muammoni to‘g‘ri aniqlaydi
2. Tahlil qilish	– Ma’lumotlar nimalardan iborat? – Qaysi faktlar muhim?	Berilgan faktlarni ajratadi, shartni tahlil qiladi	Asosiy ma’lumot aniqlanadi
3. Yechim variantlarini topish	– Qanday yo‘llar mumkin? – Yechimning eng oson yo‘li qaysi?	Turli variantlar o‘ylab topadi, taqqoslaydi	Ijodiy g‘oyalar paydo bo‘ladi
4. Eng maqbul yechimni tanlash	– Qaysi yo‘l eng qulay? – Qaysi variant mantiqan to‘g‘ri?	Variantlarni baholaydi va bittasini tanlaydi	Mantiqiy qaror qabul qilinadi
5. Yechimni bajarish	– Qanday bosqichma-bosqich yechaman?	Amaliy hisob, chizma, tajriba bajaradi	Muammo hal qilinadi
6. Natijani	– Javob to‘g‘rimi?	Javobni qayta tahlil	To‘g‘rilik

¹⁵⁷ Abdurahmonov, I. (2020). *Tanqidiy fikrlash va o‘quvchi kompetensiyalari*. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Instituti nashriyoti.

¹⁵⁸ Karimova, N. (2021). *Pedagogik texnologiyalar va savol berish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.

Bosqich	Savollar	O‘quvchi faoliyati	Natija
tekshirish	– Boshqa yo‘l bilan ham tekshirib ko‘rish mumkinmi?	qiladi	tasdiqlanadi
7. Xulosa chiqarish	– Nima o‘rgandim? – Bu bilimni hayotda qayerda qo‘llayman?	Refleksiya qiladi	Amaliy va mantiqiy xulosa shakllanadi

- Yechimni bosqichma-bosqich yozib chiq.

6. Tekshirish:

- Javobni boshqa usulda ham tekshirib ko‘r.

7. Refleksiya:

- Men bugun qanday yangi ko‘nikma o‘rgandim?
- Bu bilim hayotda menga qayerda kerak bo‘ladi?

✂ Amaliy misol : Muammo: Bir bog‘bon 12 tup daraxtni 3 qator qilib ekishi kerak, har bir qatorida 5 tadan daraxt bo‘lsin. Qanday joylash mumkin?
Savol: Qanday qilib buni amalga oshirasiz?

3. Tahlil va baholash. O‘quvchilarni matn, maqola yoki videoni tahlil qilishga o‘rgatish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Masalan, “Muallifning fikri qanchalik haqiqatga yaqin?” degan savol orqali o‘quvchi o‘z xulosasini dalillarga asoslashni o‘rganadi. Bu usul, shuningdek, o‘quvchilarda faktlarni ajratish va baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Tahlil va Baholash Metodi —o‘quvchilarning matn, maqola yoki videodagi g‘oya va faktlarni tizimli o‘rganib, mustaqil xulosa chiqarishiga yordam beradi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar dalil va fikrni ajratish, muallif pozitsiyasini baholash va o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Vazifa: O‘quvchida shakllanadigan ko‘p qaror qabul qilish va dalillar bilan tasdiqlash ko‘nikmasini rivojlantirishdir. Tizimli fikrlash, tahliliy yondashuv “Muallif fikri qanchalik asosli?”, “Qaysi dalillar yetishmaydi?” kabi savollar orqali tahlil, dalillarga tayanish, mustaqil boshqarish, o‘z fikrini mantiqiy asoslab yozish yoki og‘zaki ifodalash, mantiqiy fikrlash, asoslangan xulosalar qilish uchun xizmat qiladi. Ushbu metod muntazam qo‘llansa, o‘quvchilar matnlarni chuqurroq anglaydi, fikrni dalillar bilan asoslashni o‘rganadi va hayotiy vaziyatlarda ham mustaqil tahliliy qaror qabul qilishga tayyor bo‘ladi. Tanqidiy fikrlashning eng asosiy bosqichi — axborotni ajratish, tahlil qilish va mazmunini anglashdir. Axborot savodxonligi o‘quvchiga keraksiz

ma'lumotni chiqarib tashlab, asosiy dalillarga e'tibor qaratishni o'rgatadi.¹⁵⁹ O'quvchi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtiradi, tahlil qiladi va xulosani o'zi chiqaradi. Bu esa tanqidiy fikrlashning asosiy natijasidir.

2. Manbalarni tekshirish orqali tanqidiy yondashuv shakllanadi

4. Debatlar va munozaralar. Debatlar va guruh munozaralari o'quvchilarni turli qarashlarni tinglash va himoya qilishga o'rgatadi. Masalan, "Internet bolalarga foydali yoki zararli?" mavzusida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, turli fikrlarni himoya qilishga undash mumkin. Shu orqali ular tanqidiy fikrlashni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

5. "Nega?" va "Qanday?" metodlari. O'quvchilarga javob berishda qo'shimcha savollar berish, ya'ni "Nega shunday fikrga kelding? Qanday qilib isbotlay olasiz?" kabi savollar, ularni yuzaki javoblardan uzoqlashtiradi. Bu metod o'quvchilarda chuqur tahlil qilish va mantiqiy izoh berish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu metod o'quvchilarni yuzaki javoblardan chuqur tahlilga olib chiqish, mantiqiy asoslash va izoh berish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Rol o'yinlar. Rol o'yinlar orqali o'quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtirib, o'z fikrlarini ifodalaydilar. Masalan, tarixiy voqeani sahnalashtirish orqali qarorlarni tanqidiy tahlil qilish mumkin. Bu usul o'quvchilarga voqealarni turli tomonlardan ko'rish imkonini beradi.

7. Yozma refleksiya. Insho, jurnal yoki refleksiya yozish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini tartibga soladilar va mustaqil xulosalar chiqaradilar. Masalan, "Bugungi darsda o'rganganlaringizni hayotingizda qanday qo'llash mumkin?" degan savol orqali o'quvchilar fikrni tizimli shaklda ifodalashni o'rganadilar.

"Men bilardim – Men o'rgandim – Menda savol qoldi" jadvali

Men bilardim	Men o'rgandim	Menda savol qoldi
Mavzu boshlanishidan oldin bilganlarim	Dars davomida o'rgangan yangi tushunchalar	Yaxshi tushunmagan yoki qiziqtirgan savollar

¹⁵⁹ Xudoyberdiyev, M. (2019). *O'quvchilarda axborot savodxonligini rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: Fan va Ta'lim.

4. Tanqidiy tahlil uchun savollar

1) Bugungi darsda eng qiyin bo‘lgan qism nima edi? Nega?

2) Agar siz o‘qituvchi bo‘lsangiz, bugungi mavzuni qanday tushuntirgan bo‘lardingiz?

Bugungi darsdan olgan eng muhim xulosam:

Keyingi darsga o‘zimga qo‘ygan maqsadim:

8. Ma’lumot manbalarini tekshirish. O‘quvchilarga turli ma’lumot manbalarini tahlil qilishni o‘rgatish zarur. Masalan, “Bu maqola ishonchlimi? Dalillar qayerda?” degan savollar orqali o‘quvchilar axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

Ma’lumot manbalarini tekshirish metodi — Jadval

Bosqich	O‘qituvchi bajaradigan ish	O‘quvchi bajaradigan ish	Shakllanadigan ko‘nikma
1. Manbani aniqlash	Muallif, sayt/jurnal, manbaning maqsadi haqida savollar beradi	Matn kim tomonidan va nima maqsadda yaratilganini aniqlaydi	Manbani tanlash, tahliliy yondashuv
2. Dalillarni tekshirish	Matndagi fakt, statistika, raqamlar, iqtiboslar qayerdan olinganini so‘raydi	Matndagi dalillarni ajratadi va ularning manbasini tekshiradi	Fakt va fikrni ajratish
3. Muallif pozitsiyasini baholash	Muallifning tarfakashligi, shaxsiy fikri haqida savollar beradi	Muallifning subyektiv fikrlarini aniqlaydi, neytrallik darajasini baholaydi	Xolislik, mantiqiy baholash
4. Manbalarni taqqoslash	Bir xil mavzudagi 2–3 manbani solishtirish topshirig‘ini beradi	Turli manbalardagi dalillarni taqqoslaydi	Solishtirish, tahliliy fikrlash
5. Yakuniy xulosa	“Bu ma’lumot qanchalik ishonchli?” degan savol beradi	Dalillarga tayangan holda asosli xulosa chiqaradi	Asosli xulosa chiqarish, tanqidiy fikrlash

Xulosa. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. O‘quvchilarga savol berish, muammo yechish, tahlil va baholash, debatlariga jalb qilish, rol o‘yinlar, yozma refleksiya va ma’lumot manbalarini tekshirish kabi usullar orqali tanqidiy fikrlashni o‘rgatish mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarda xatolikdan qo‘rqmaslik va fikr almashish rag‘batini yaratish muhimdir. Bu usullar o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki hayotiy qaror qabul qilish qobiliyatini ham oshiradi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov, I. (2020). Tanqidiy fikrlash va o‘quvchi kompetensiyalari. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Instituti nashriyoti.
2. Xudoyberdiyev, M. (2019). O‘quvchilarda axborot savodxonligini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Fan va Ta’lim.
3. Karimova, N. (2021). Pedagogik texnologiyalar va savol berish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Tursunov, A. (2018). Muammo yechish va mantiqiy tafakkur. Toshkent: Ilmiy nashrlar.
5. Sobirov, R. (2022). Oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Toshkent: Akademiya nashriyoti.
6. Ennis, R. H. (2008). Critical Thinking Across the Curriculum: A Brief Edition of Thought and Knowledge. Pearson.